



ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Мадраимова Халима Гайрат кызы, ученица КИУТ

Аннотация: В данной статье рассматривается использование современных технологий в формировании речевой компетенции учащихся начальных классов посредством самостоятельной работы, применение современных методов в обучении, организация самостоятельной работы в соответствии с заданием PIRLS на уроках родного языка.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI MUSTAQIL ISHLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Madraimova Halima G'ayrat qizi KIUT talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinfi o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini mustaqil ishlari orqali shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ta'limda zamonaviy metodlardan foydalanish o'z tili darslarida PIRLS topshirig'iga mos mustaqil ishlarni tashkil qilish haqida yoritilgan.

Kirish

Bugungi kunda an'anaviy tarzda o'qituvchining darsdagi bilim berish jarayoni va barcha topshiriqlarni tushuntirishga harakat qilishi, o'quvchilarning darsga bo'lgan faolligini oshirish, no'an'anaviy darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. O'qitish jarayonida o'quvchilarni darsda faol bo'lishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo'naltiradigan har xil metodlar va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Balki o'quvchi an'anaviy o'qitish jarayonida obyekt hisoblansa, bugun u sub'ektga aylanmoqda. Ta'limning «obyekt-subyekt» tizimi o'z o'rnini «subyekt-subyekt» tizimiga



bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi [1]. Milliy ta'lim modelining o'ziga xos jihati va yangiligi ham shundan iborat. Ona tili fanidan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va ularning bilim egallash faoliyatini amalga oshirish masalalari bir qator ilmiy adabiyotlarda yoritilgan bo'lsa-da, ba'zi holatlarda sinfda yoki sinfdan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarga asosiy e'tibor beriladi. Darsdan tashqari mustaqil ishlar bilan ishlash va o'z-o'zini baholash orqali ularning bilim olishini faollashtirish muammolari ham o'rganilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Nutqiy kompetensiya bolaning muloqotga kirishish, o'z fikrini aniq va ravon ifoda etish, atrofdagi hodisalarni tahlil qilish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etadi. Ushbu kompetensiyani shakllantirishda an'anaviy uslublar bilan bir qatorda, mustaqil ish turlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'limdagi zamonaviy metodlar – konstruktiv, interfaol, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali bolalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyati tug'iladi. Mustaqil ishlar esa aynan o'quvchining faol ishtirokini, izlanish qobiliyatini, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Zeroki, darsdan tashqari bajariladigan mustaqil ishlar dars jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlashga, ularni yanada kengaytirib, yangi bilimlar bilan boyitishga yordam beradi. O'z-o'zini baholash orqali bilimni nazorat qilish esa o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, bilim olishni rag'batlantiradi,



ta'lim jarayonini demokratlashtirishga imkon yaratadi. Sinfdagi barcha o'quvchini mustaqil ishlashga qilishning sinalgan ikki yo'li-dars va uy vazifalarini bajarish bilan bog'liq. Shu boisdan, adabiyotlarda deyarli bir-biriga bog'liq holda tadqiq etilmagan ushbu ikki yo'nalishni izlanishlarimizga asosiy maqsad qilib belgilashni lozim topdik. O'quvchilarning o'quv – bilim kompetensiyalari PIRLS xalqaro baxolash dasturi talablari doirasida mustaqil ta'limni shakllantirish va tashkil etish muhim jarayon hisoblanadi. Nazariy-metodologik asoslar-nutqiy kompetensiya tushunchasi tilshunoslikda va pedagogikada turli jihatlari bilan o'rganib kelinmoqda. Tilshunos A. Avloniy, pedagog L.S. Vygotskiy, N.A. Chomskiylarning qarashlariga ko'ra, nutq – bu inson tafakkurining tashqi ifodasi bo'lib, uni o'stirishda atrof-muhit, ijtimoiy muloqot va mustaqil faoliyat muhim rol o'ynaydi. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir. K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o'qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini falsafiy, o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o'z fikrlarini bildiradi. Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro'y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi. A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning aytishicha, bola nutqini rivojlantirish-bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Nutqni egallashning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Shuni nazarda tutgan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim



bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, "...bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o'rganib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o'qigan taqdirda ham uning yarmini o'zlashtira olmaydi".

Mustaqil ish – bu o'quvchining darslik yoki o'qituvchi yordamisiz, o'zi mustaqil ravishda topshiriqni bajarish jarayonidir. Bu turdagi ishlar bolada mas'uliyat, mustaqil fikrlash, e'tibor va nutq faolligini rivojlantiradi. Bu turdagi ishlar bolada mas'uliyat, mustaqil fikrlash, e'tibor va nutq faolligini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda esa bu kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

Interfaol yondashuv – guruhli ishlarda fikr almashish;

Konstruktiv yondashuv – mavjud bilimga asoslanib yangi bilim hosil qilish;

Muammo asosida o'qitish – o'quvchini fikrlashga majbur etuvchi topshiriqlar berish;

Refleksiv yondashuv – o'quvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, xulosa chiqaradi.

Mustaqil ishlar turlari va ularning roli

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan mustaqil ishlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Rasm asosida matn tuzish – og'zaki va yozma fikr ifodasi;

Topishmoq va maqollar bilan ishlash – obrazli fikrlashni rivojlantirish;

Rolli o'yinlar va dialoglar tuzish – muloqot ko'nikmasini mustahkamlash;

Kichik tadqiqot ishlari – savol asosida izlanish va bayon qilish;

So'z va iboralardan hikoya tuzish – ijodiy fikrlashni faollashtirish.



Bu ishlar orqali o‘quvchi o‘z bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki ular asosida yangi nutqiy shakllar yaratishga intiladi. Mustaqil ishlar quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkin:

Yakka tartibda - Har bir bola topshiriqni o‘zi bajaradi.

Juftlik yoki guruh- Bolalar o‘zaro fikr almashishadi

Musobaqa tarzda- Tez va to‘g‘ri bajargan guruhlar rag‘batlantiriladi.

„Gap ustida ishlash bo‘yicha mustaqil ish turlari”- Ona tili darslarida gap ustida ishlash – bu bolaning nutqiy rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishdir. Quyidagi usullar mustaqil ish sifatida taklif etiladi: **So‘zlardan gap tuzish:**

Masalan: “maktab, boradi, bugun, Doniyor” so‘zlari asosida gap tuz:

“Bugun Doniyor maktabga boradi.”

Rasm asosida gap tuzish:

Rasmga qarab savollar beriladi:

“Bolalar nima qilayaptilar?” Javob: “Bolalar bog‘da gullarni sug‘aryaptilar.”

Gapni to‘ldirish, o‘zgartirish:

Masalan: “Bugun havo _____.”

To‘ldirish: “Bugun havo bulutli.”

Gapni qisqartirish yoki kengaytirish:

Kengaytirish: “Qush uchdi.” → “Yirik qush baland osmonda uchdi.”

Qisqartirish: “Dadam kecha do‘stlari bilan stadiona futbol tomosha qilish uchun bordi.” → “Dadam futbol tomosha qildi.”



Bugungi kunda 4 sinf o'qish savodxonligi kitobida mustaqil ishlar ham mavjud. Darslikda rasm berilgan va u rasm asosida biz PIRLS topshirig'iga asoslanib o'quvchiga topshiriq tuzamiz.

“Qushlar qanday inlarda yashaydilar?” “Bolalar ensiklopediyasi ertaklarda” kitobidan

Qushlar qanday inlarda yashaydi? 8-mavzu

Rasmni kuzating va izohlang.
Qushlarning ini nimalardan yasalgan?
Sizningcha, qushlar yana qanday inlarda yashaydilar?





Qushlar qanday inlarda yashaydilar?

Qadim zamonda bir baliqchi qush bo'lgan ekan. Uning tuxum qo'yib, bolalaydigan payti yaqinlashibdi. Baliqchi qush: “Qanday in qursam ekan?” deb o'ylanib qolibdi. O'ylab-o'ylab, oldin boshqa qushlarning qanday in qurishlarini bilib olishga qaror qilibdi.

– Yur, senga o'z inimni ko'rsataman, – deb Qarg'a uni iniga taklif qilibdi. – Bu yerda bolalarim uchun keng joy qilib qo'yganman, – debdi u.

Baliqchi qushga Qarg'a inini sira yoqmad. Bir uyum katta-kichik shox-shabbalar har tarafga sochilib yotgan emish.

8-mavzu Qushlar qanday inlarda yashaydi?

Shunda u boshqa inni ko'rgani ketibdi. Uchib borib chumchuqning iniga qo'nibdi. Chumchuq o'zi uchun dumaloq shakldagi, tepasida teshigi bor in qurgan ekan.

– Yaxshi, qulaygina uya ekan, lekin buning tashvishi-chi? Men bunday uy qurguncha charchab qolaman-ku, axir? – deb o'ylabdi o'zicha Baliqchi qush.

– Shu ham ish bo'ldimi? – debdi yovvoyi tovuqlar birvarakayiga. – Biz bo'lajak jo'jalarimiz uchun qanday in qurganimizni bir qaragin-a! Oldin yerdan yarim metr chuqurlikda o'ra kovlab, keyin uch oy davomida tepalik quramiz, – deyishibdi ular.


– Men esa o'zinga loydan in quraman, – debdi qaldirg'och.

– Men esa qirg'oq bo'yilarida chuqurcha qaziyman, – debdi qirg'oq qaldirg'ochi.

– Buncha ortiqcha harakatning nima keragi bor? – deb ajablanibdi Boyqush. – Masalan, men qizilishton daraxtda qoldirgan eski teshikni topib olib, shuning ichida tinchgina yashayveraman.

– Men ham o'zimni qiyinab o'tirmayman, – debdi Kaku. – In qurishning nima keragi bor o'zi?





I. Gaplarni asar voqealari tartibida joylashtiring.

1. Kakku tuxumlarini boshqa qushlarning iniga qo'yadi.
2. Tovuq va o'rdak kabi qushlar yerga in quradi.
3. Ayrim qushlar o'z inlarini daraxt shoxlariga quradi.
4. Ba'zi qushlar loydan in quradi.

--	--	--	--

II. Testlarni yeching

5. Quyidagi qushlarning qaysi biri tuxum bosmaydi?

- A) Kakku
- B) Laylak
- C) Yovvoyi tovuqlar



E) Chumchuq

6. Qaysi qushlar yer yuzasida in quradi?

A)Tovuq va o'rdak

B)Kakku va chumchuq

C) Qaldirg'och va laylak

D) Qarg'a va yovvoyi tovuq

III. Gaplarni to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilang

№	Gaplar	To'g'ri	Noto'g'ri
7	Barcha qushlar tuxumlarini o'z inlariga ochadi Barcha qushlar inlarini daraxtlarga quradi		
8	Kakku tuxumlarini boshqa qushlarning iniga qo'yadi		
9	Ba'zi qushlar tayyor kovaklarda yoki boshqa hayvonlar tashlab ketgan joylarda yashaydi		
10	Barcha qushlar inlarini daraxtlarga quradi		

IV. Tushib qoldirilgan so'zlarni yozing.

_____qush uchib yurib, _____ birma-bir tomosha qilib chiqquncha ,
uning_____ qo'yadigan payti ham kelib qolibdi. Shunda u tuxumlarini



o'zi yashaydigan _____ bo'yidagi yerga qo'yibdi vas hu yerda jo'jalarini parvarishlab o'stiribdi.

V. Savollarga javob yozing.

11. Qaysi qush tuxum bosmaydi va bolalarini boqmaydi?

12. Qaysi qush dumaloq shakldagi , tepasida teshigi bor in qurgan?

13. Baliqchi qushning sayohatidan nimalarni bilib oldingiz?

14. Baliqchi qushga qaysi ushning ini yoqmadi? Nega?

VI. Asarda ishtirok etgan qushlarni belgilang

Qushlar	+	-
boyqush		
laylak		
Qizilishton		
musicha		
Qaldirg'och		
Qarg'a		
kabutar		



kakku		
-------	--	--

VII. Fikringizni bayon qiling .

15. Ertakdan qanday xulosa
chiqardingiz?_____

16. Ertakni sarlavhasi o'ziga mos tushganmi? Yana boshqa qanday sarlavha qo'yish
mumkin ? Kamida uchta sarlavha nomini yozing?

Shunday topshiriqlar berib ,nutqiy kompetensiyasini rivojlantiramiz.

TADQIQOT NATIJALARI

Gap ustida ishlashga oid mustaqil ishlar bolalarning mustaqil fikrlashi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday ishlar orqali o'quvchilar so'z boyligini oshiradi, gap tuzish, matn yaratish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Mustaqil ishlar yakka tartibda, juftlikda yoki guruh bo'lib, musobaqa tarzida tashkil qilinsa, bolalarning darsga qiziqishi ortadi. O'yinli va ko'rgazmali metodlardan foydalanish esa ularning faolligini oshiradi va darsni jonlantiradi. Shunday qilib, mustaqil ishlar orqali ona tili darslari samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Mustaqil ishlar maqsad-mazmuni, vazifalari yakka xolda yoki guruhli bo'lib yo'nalganligiga qarab ajratiladi. Mustaqil ish topshiriqlari bajarilish jarayonida o'quvchining bilim darajasiga mosligi va berilgan topshiriqlari yoshiga munosib bo'lishi kerak . Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darsida



beriladigan mustaqil ishlar nutqiy kompetensiyani o'z ichiga olgan bo'lishi qiziqarli, ilmiyligi, fanlar bilan aloqasi borligi, ijodiyligi, mavzularning tizimlilik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy kompetensiyani mustaqil ishlar orqali metodik, nazariy, amaliy va pedagogik tahlil qilinsa, darsning shakllari, vositalari to'g'ri tanlansa samarali natijaga erishiladi. Nutqiy kompetensiyada boshlang'ich sinf o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositalardir.

MUHOKAMA

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlar yaratishni talab etmoqda. An'anaviy o'qitish usullaridan voz kechib, "obyekt-subyekt" tamoyiliga asoslangan ta'limga o'tish o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan islohotlar doirasida umumiy o'rta ta'limda milliy va zamonaviy tajribalar asosida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil ishlash va nutqiy kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, ona tili fanida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning muloqotga kirishish, fikrni aniq va ravon ifoda etish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida mustaqil ishlarga keng imkoniyat yaratish, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ularni hayotga tayyorlash dolzarb va zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim. Bugungi ta'lim tizimi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishish va faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirishni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitish usullaridan voz kechilib, zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlashi va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylangan.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va o'z fikrini aniq ifoda etish malakasini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Ona tili va boshqa fanlarda mustaqil ish turlarini ko'paytirish;



O'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini yaratish;

Har bir darsda o'quvchilarning o'z fikrini erkin bayon qilishiga imkon beruvchi faol metodlardan foydalanish;

Mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan interaktiv usullar va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va ularni hayotda faol pozitsiyaga ega shaxs sifatida shakllantirish mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mustaqil ravishda bilim olish va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirish ularning tafakkurini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinfda mustaqil ishlar interfaol, konstruktiv, muammo asosida va reflektiv metodologik yondashuvlarga asoslanib tashkil qilinishi zarur. Bunda o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning erkin fikr yuritish, tahlil qilish va xulosalash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Mustaqil ishlarning turlari – rasm asosida nutq tuzish, muammoli vaziyatni hal qilish, kichik tadqiqot ishlarini amalga oshirish – o'quvchilarning izlanish va ijodiy fikrlash faoliyatini rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning ona tili va nutq kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mustaqil ishlarni tizimli tashkil etish, ularni muntazam rag'batlantirish va metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirish o'quvchilarning kelgusidagi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI



REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги ПФ-5538 сон “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.- Тошкент, 06.09.2018 й., 06/18/5538/1840-сон.
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187 сон «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами.- Тошкент 2013. 20-сон, 251 б.
3. Ковалевой Г.С. Путь к мастерству: Психолого-педагогический практикум. - Рязань, 2004.
4. Дмитриев А.Е. Эффективность формирования умений и навыков в системе начального обучения // Педагогика. - 1991. № 5. - 23-29 с.
5. Қурбонова М.Ф. Умумий ўрта таълим мактаблари бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш компетенцияларини шакллантириш аҳамияти // Халқ таълими. –Тошкент, 2020. 3-махсус сон. – Б. 29-33 (13.00.00. № 17).
6. Қурбонова М.Ф. Ўқувчиларнинг ўқув-билиш компетенцияларини шакллантиришда коучинг методикаси // Мактаб ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. Махсус сон № 1. – Б. 8-10 (13.00.00. № 4).
7. Қурбонова М.Ф. Мустақил ишларни ташкил этиш асосида бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган методлар // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. – Нукус, 2021. – Б. 112-116 (13.00.00. № 20).



8. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.